

1-MAVZU
SENTYABR

“MUSTAQILLIK VA O‘ZBEKISTON YO‘LI”

2-HAFTA MASHG‘ULOTI

1991 YILGI TARIXIY VOQEALAR VA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MUSTAQILLIGINING E‘LON QILINISHI

Mashg‘ulot maqsadi: o‘quvchilarda O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e‘lon qilinishi, 1991 yil 31 avgust va 1 sentyabr sanalarining tarixiy ahamiyati haqida tushuncha hosil qilish, mustaqillik xalqimiz hayotida yangi davrni boshlab berganini anglatish hamda Vatanga hurmat va daxldorlik tuyg‘usini shakllantirish.

Metodikalar: suhbat, savol-javob, muhokama, tarixiy voqealarni tahlil qilish, ijodiy topshiriq.

Asosiy tushunchalar: mustaqillik, davlat mustaqilligi, suverenitet, tarixiy sana, 31 avgust, 1 sentyabr, xalq irodasi, Vatan, davlat ramzlari.

DARS JARAYONI

Kirish

O‘qituvchi mashg‘ulotni savol-javob asosida boshlaydi: “1 sentyabr qanday bayram?”, “Mustaqillik bayrami nima uchun xalqimiz uchun qadrli?”, “Mustaqil davlat deganda nimani tushunasiz?”. Ushbu savollar orqali o‘quvchilarning mustaqillik va tarixiy sanalar haqidagi dastlabki tasavvurlari aniqlanadi.

Asosiy qism

O‘qituvchi 1991 yil 31 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi e‘lon qilinganini, 1 sentyabr esa Mustaqillik kuni sifatida belgilanganini tushuntiradi. Bu sana xalqimiz tarixida yangi davrni boshlab bergani, mamlakatimizga o‘z taqdirini o‘zi belgilash, mustaqil taraqqiyot yo‘lini tanlash, davlat ramzlari, qonunlari, tili va milliy qadriyatlarini rivojlantirish imkonini bergani ta’kidlanadi.

Davlat mustaqilligi mamlakatning o‘z hududi, xalqi, davlat tili, qonunlari, boshqaruv tizimi va xalqaro munosabatlarda mustaqil ishtirok etish huquqiga ega bo‘lishi bilan ifodalanadi. Mustaqillik natijasida O‘zbekiston ichki va tashqi siyosatini mustaqil

yuritish, ta'lim, madaniyat, iqtisodiyot va ma'naviyat sohalarida o'z yo'lini belgilash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Mashg'ulot yakunida o'qituvchi mustaqillikni asrash va mustahkamlash har bir fuqaroning, ayniqsa yosh avlodning bilimli, mas'uliyatli, faol va vatanparvar bo'lishi bilan bog'liq ekanini ta'kidlaydi.

MUHOKAMA UCHUN SAVOLLAR

1-4-SINFLAR 1 sentyabr qanday bayram? Mustaqillik bayramida nimalarni ko'rgansiz? Bayrog'imiz, gerbimiz va madhiyamiz haqida nimalarni bilasiz?

5-7-SINFLAR Mustaqil mamlakat bo'lish nimani anglatadi? 1991 yildan keyin xalqimiz hayotida qanday o'zgarishlar yuz berdi? Davlat ramzlari nima uchun muhim?

8-9-SINFLAR O'zbekiston mustaqillikka erishgach, qanday imkoniyatlarga ega bo'ldi? Tarixiy sanalarni bilish nima uchun zarur? Davlat mustaqilligining asosiy belgilari nimalardan iborat?

10-11-SINFLAR Davlat mustaqilligi xalqning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Mustaqillikni mustahkamlashda fuqarolik mas'uliyati nimalarda namoyon bo'ladi?

AMALIY TOPSHIRIQ

1-4-SINFLAR "Mustaqillik bayrami" mavzusida og'zaki hikoya tuzadilar.

5-7-SINFLAR "Mustaqillik men uchun..." mavzusida 5-6 ta gapdan iborat qisqa fikr yozadilar.

8-9-SINFLAR "1991 yil - O'zbekiston tarixida yangi davr" mavzusida qisqa taqdimot yoki vaqt chizig'i tayyorlaydilar.

10-11-SINFLAR "Mustaqillik - xalq irodasi va tarixiy zarurat ifodasi" mavzusida qisqa tahliliy mulohaza yozadilar.